

RASMIY MUNOSABAT



RASMIY MUNOSABAT

RASMIY MUNOSABAT

Joriy yilning 25-mart kuni Facebook ijtimoiy tarmogʻidagi "Xalq nazorati" guruhida Termiz shahar "Joʻyjangal" MFY "Muqimiy" koʻchasining xarob ahvoli, taʼmirtalabligi tanqid qilingan murojaat yoʻllangan.

Mazkur murojaat oʻrganilganda quyidagilar aniqlandi. Termiz shahar "Joʻyjangal" mahallasi Muqimiy koʻchasida joriy yilning bahor mavsumida yogʻingarchilik vaqtida yomgʻir suvi toʻplanib tabiiy koʻllar xosil boʻlib, harakatlanishga noqulaylik keltirib chiqarganligi olati yuzaga kelgan.

Ushbu koʻcha ichki avtomobil yoʻli xisoblanganligi hamda fuqarolar tomonidan murojaatlarning koʻpayib ketishining oldini olish maqsadida 2022-yil ichki avtomobil yoʻllarini taʼmirlash dasturiga taklif berilgan, ushbu dastur tasdiqlangandan soʻng, byudjet mablagʻlari ajratilib, asfaltbeton yotqizish ishlari joriy yilning 3-choragida amalga oshirilishini maʼlum qilamiz.